



SYUJET VA KOMPOZITSIYANING O'ZIGA XOSLIGI VA ASARLARDA
NAMOYON BO'LISHI

G'ofurova Sabrina

Shermatova Fotima

Qarshi davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish :o'zbek tili yo'nalishining 1-bosqich
talabalari sabrinagofurova575@gmail.com , fotimashermatova337@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada syujet va kompozitsiyaning nima ekanligi, ularning turlari, unsurlari va badiiy asarlarda namoyon bo'lishi haqida berilgan bo'lib, Abdulla Qodiriyning eng yuksak romani asosida, ya'ni "O'tkan kunlar" misolida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Syujet, kompozitsiya, xronikali syujet, retrospektiv syujet, konsentrik syujet, assotsiativ syujet, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, asar sarlavhasi, epigrafi, lirik chekinish, qistirma epizod

THE UNIQUENESS OF PLOT AND COMPOSITION AND ITS
MANIFESTATION IN WORKS

Annotation: This article discusses what plot and composition are their types, elements and their manifestation in works and is explained using the example of Abdullah Qodiriy's highest novel, namely "Past days"

Keywords: Plot, composition, chronicle plot, retrospective plot, concentric plot, associative plot, exposition, plot, development of events, culmination, resolution, title of the works, epigraph, lyrical digression, episodic episode

УНИКАЛЬНОСТЬ СЮЖЕТА И КОМПОЗИЦИИ И ИХ ПРОЯВЛЕНИЕ НА
ПРОЯТЯЖЕНИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация: В этой статье рассматривается, что такое сюжет и композиция, их типы элементы и их проявление в произведениях и объясняется это на примере самого известного романа Абдуллы Кодирия а именно "Прошлые дни".

Ключевые слова: сюжет, композиция, хронический сюжет, ретроспективный сюжет, концентрический сюжет, ассоциативный сюжет, экспозиция, развитие событий, кульминация, развязка, название произведения, эпиграф, лирическое отступление, эпизодический эпизод

KIRISH

Syujet va kompozitsiya asarlarda alohida-alohida ahamiyatga ega. Ular bir-biri bilan qo'shilgani sari uyg'unlashib boraveradi va natijada asarlarga o'zgacha badiiylilik baxsh etadi.



Ular asarlardagi o'zaro bog'langan voqealar zanjiriga o'xshaydi. Badiiy asar kompozitsiyasi- asar shakli va g'oyasini ifodalash uchun obrazlar, voqealar va badiiy vositalarni ma'lum bir tartibda joylashtirish hamda o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi vositadir. Syujet qahramonlar xarakteridagi mazmun birligini ochib berishga xizmat qiladi, u fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, "narsa, asosga qo'yilgan narsa, mazmun" degan ma'nolarni anglatadi.

ASOSIY QISM

Syujet va kompozitsiyaning o'ziga xos turlari va unsurlari mavjud. Syujetga to'xtaladigan bo'lsak, u 4ta turga bo'linadi:

1. Xronikali syujet- asosan qahramonlarning hayoti ketma-ket ochib boriladi va bu ko'pincha dostonlarda namoyon bo'ladi.

2. Retrospektiv syujet- asarda ma'lum voqea sodir bo'ladi va uning sababi, tarixi aytib o'tiladi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanini misol qilsak bo'ladi.

3. Konsentrik syujet- ma'lum jumboq asar davomida ochib borilaveradi ya'ni dedektiv asarlarda, chunonchi, Tohir Malikning "Shaytanat" asarida voqealarning avj olish pallasini.

4. Assotsiativ syujet- ilgarilari asosan lirik asarlar uchun harakterli bo'lib, lirika tashqi hodisalarga shoirning munosabati yoki tashqi hodisalar ta'sirida shoir shaxsida tug'ilgan tuyg'u va kechinmalarga asoslanardi. Hozirda syujet qurishning assotsiativ usuli yirik nasriy va dramatik asarlar uchun ham xos bo'lib qolmoqda. Bunday asarlarda hikoya qilinmaydi, balki qahramonlarning o'ylari, xotiralari asosida quriladi. Masalan, A. Muxtorning "Davr mening taqdirimda", Chingiz Aytmatovning "Alvido, Gulsari", O. Yoqubovning "Ko'hna dunyo" asarlari assotsiativ usulga asoslanadi.

Syujetning yetakchi unsurlari ham bor. Ular badiiy asardagi voqealar rivojini tashkil etuvchi asosiy bosqichlar bo'lib, asar mazmuni va qahramonlar taqdirini izchil ochib berishga xizmat qiladi. U ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechimdan tashkil topgan. Bu unsurlarni esa Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida ko'rib chiqamiz.

1. EKSPOZITSIYA- lotincha so'zdan olingan bo'lib, "tushuntirish, bayon qilish"dir. U voqealar boshlanishidan oldingi holat bo'lib, qahramonlar va asardagi sharoit bilan tanishtiradi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida romanning boshlanishi Otabek, Yusufbek hoji, Ziyo shohichi, Rahmat, Hasanali, Homid sarguzashtlarining debochasi haqida ilk ma'lumotni beradi. Demak, ekspozitsiyada kitobxon asar qahramonlari bilan tanisha boshlaydi va ularning shaxsiga qiziqishi ortib boradi.

2. TUGUN- asardagi asosiy konflikt (ziddiyat) boshlanadigan nuqtasidir. U ekspozitsiyadan keyin kelib chiqadi va u ko'p hollarda qahramonlarning biror jiddiy muammo yuzasidan munozara qilishi tufayli paydo bo'ladi. Misol qilib, "O'tkan kunlar" da, konflikt, Otabek va Homidning uylanish haqidagi bahsidan paydo bo'ladi.

1. Dilmurod Quronov- Adabiyot nazariyasi asoslari. Darslik, Toshkent. Innovatsiya Ziyo, 2020, 127 bet

3. VOQEALAR RIVOJI- tugundan keying harakatlarning kuchayishi, voqealarning rivojlanishi hisoblanadi. Shu romanda Otabekning Kumushga uylanishi, Homidning fitna uyishtirishi, ota-ona orzusi, Otabek va Mirzakarim qutidorning fitna izidan qamalishi kabi jarayonlarning sodir bo'lishi voqealar rivoji sanaladi.



4.KULMINATSIYA-voqealar rivojining, qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarning eng yuqori cho'qqisi. Otabek va Homid orasida tugunning paydo bo'lishi, voqealar rivojlanib ketishi natijasida yuqori cho'qqiga keldi ya'ni Otabek tomonidan Mutal polvon, Sodiq tomteshar va xotinboz Homidning o'ldirilishi asarning kulminatsiya nuqtasidir.

5.YECHIM-asar voqealarining yakunlanishi,ziddiyatlarning hal bo'lishi, qahramonlar taqdiridagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Asarda Kumushning vafoti, Zaynabning jinnilik darajasiga kelib qolishi va Otabekning shahid bo'lishi romandagi eng katta yechimga dalolatdir.

Kompozitsiya so'zi lotincha "komponere" so'zidan olingan bo'lib, "tuzmoq, joylashtirmoq, to'qimoq" degan ma'nolarni anglatadi.Kompozitsiyaning katta qismini esa syujet tashkil qiladi.Aytishimiz mumkinki, biron-bir asar badiiyati haqida so'z ketganda eng avval uning kompozitsion xususiyatlariga, ijodkor mahoratiga ayrica e'tibor berishimiz kerak² .Kompozitsiya syujetdan kengroq tushuncha hisoblanadi, chunki u syujetni ham , syujetdan tashqarida qoluvchi vositalarni ham o'zida jamlaydi va ular kompozitsion vositalar deb ataladi.

1.ASAR SARLAVHASI- kompozitsion vositalarning eng muhimi bo'lib, asarning asosiy mazmunini ochib beradi. Oddiygina bir asar mazmunida ko'zga ko'rinmagan olam-olam ma'noni anglash mumkin.Asar sarlavhasi bir yoki bir nechta so'zdan iborat bo'lishi mumkin.O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani sarlavhasi " Inson umrining mazmunini va vaqtinchaligini anglatuvchi" so'zdir.Muallif izohiga ko'ra, bu tug'ilish va o'lim oralig'idagi o'tkinchi dunyo.Sarlavha inson hayotining qisqaligi, urush keltirgan fojealar, iymon va insoniylik sinovlarini o'z ichiga oladi.Hayot- bu ikki eshik oralig'idagi o'tkinchi biro lam, bir lahzalik manzil sifatida tasvirlanadi. Inson o'sha ikki eshik oralig'ida qanday yashashi, qanday iz qoldirishi, iymonini saqlab qolishi eng oliy maqsad ekanligi ta'kidlanadi. Muallifning o'zi ham asar haqidagi so'zboshida hayotiy savollar va inson taqdiri haqida so'z yurtadi.

2.EPIGRAF-dastlab, qadimgi Gretsiyada qabr toshlariga yozilgan she'rlarning janri bo'lgan Epigraf hamma asarlarda bo'lmaydi, lekin u qisqa, soda va mazmunli bo'lishi kerak. Said Ahmadning " Qorako'z majnun " hikoyasiga to'xtaladigan bo'lsak, Hadisi Sharifdan³ : "Jannatga kiradigan 10 nafar hayvondan biri bu "Ashqi kahfning vafodor itidir(Al- jome ul Kabir). Hikoyada maxsus adabiy epigraf keltirilmagan ,biroq uning mazmuni va ruhiyatini to'liq ochib beruvchi " Hayvonda ham yurak bor, mehr bor" degan yashirin g'oya ustiga qurilgan.

2.Abdulla Ulug'ov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" 3.Said Ahmad "Qorako'z majnun " hikoyasi

3.LIRIK CHEKINISH- San'atkor asar yaratayotganida uing syujet voqealaridan ba'zida o'zi ham ta'sirlanib ketadi, g'oyalar, fikrlar quyilib kelaveradi, ana shu paytda esa u syujet voqealarini to'xtatib , o'z kechinmalarini tasvirlashi lirik chekinish hisoblanadi.Unda yozuvchi voqealarga nisbatan quvonchi, qayg'usi va g'azabini ifodalaydi.Abdulla Qodiriyning " O'tkan kunlar" romanida Otabek va Kumushning sevgisi fonida Sharqona hayot va inson taqdiri haqidagi lirik chekinishlar, yoki bo'lmasa, G'afur Gulomning " Shum bola " qissasida muallif o'zining bolaligi, o'sha davr turmushi haqida yozgan lirik chekinishi kompozitsiyada emotsional to'xtam vazifasini bajaradi.



4.QISTIRMA EPIZOD-mustaqil mazmunga ega kichik hikoya yoki lavha . U asar g'oyasini boyitish, qahramon xarakterini ochish va voqealar rivojiga rang-baranglik qo'shish uchun xizmat qiladi.Masalan, Abdulla Qodiriyning “ Otkan kunlar” asarida “Usta Olim” hikoyasi aynan qistirma epizoddir.Bu hikoyani asardan ajratib olib o'qisak ham , u tugallangan bir vojeali hikoyaga o'xshaydi.

5.BADIIY QOLIPLASH-badiiy asar g'oyasi va mazmunini ochishga xizmat qiluvchi qismlar, obrazlar va voqealar tizimi .”O'tkan kunlar” romanida badiiy qoliplash juda aniq ko'rinadi .Misol uchun Kumushning tug'ilishidan oldin buvisi Oyshabibi vafot etishi va bu voqeaning Otabek va Kumush munosabatlariga ta'siri ularning ruhiy holatini ochib beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, badiiy asarning mazmuni va shaklini belgilovchi asosiy omillar bu- syujet va kompozitsiya .Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'ziga xos vazifalarga ega .Syujet va kompozitsiya badiiy asar uchun ustun va poydevor kabi zarurdir .Ularsiz asar san'ati yuksak darajaga ko'tarila olmaydi.Syujet bo'lmasa, asarda hayotiy to'qnashuv va qiziqarli voqealar bo'lmaydi-o'quvchi zerikib qoladi.Kompozitsiya bo'lmasa, bu voqealar chalkashib ketadi-o'quvchi hech narsani tushunmaydi.Qisqa qilib aytganda, syujet-asarning vujudu, kompozitsiya esa- uning shakli va tartibidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Dilmurod Quronov- “Aabiyotshunoslik asoslari”, Toshkent akademiyasi nashri, 2018
- 2.Abdulla Ulug'ov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, Toshkent.G'afur G'ulom nashri, 2018
- 3.To'xta Boboyev “ Adabitotshunoslik asoslari nazariyasi”- O'qituvchi nashriyoti,2002
- 4.Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” romani – Toshkent:Yangi kitob,2022.-464b.
- 5.Fitrat “ Adabiyot qoidalari’ Toshkent: O'qituvchi nashri,1995
- 6.Said Ahmad “ Qorako'z Majnun” hikoyasi